

"O'zkimyosanoat kubogi" g'oliblari aniqlandi!

// 11.06.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-kubogi-g-oliblari-aniqlandi>



Kimyo sanoati yosh mutaxassislari forumi ishtirokchilari o'rtasida **"Zakovat"** intellektual turnirining **"O'zkimyosanoat kubogi"** tashkil etildi. Qizg'in va murosasiz bahslar ostida o'tgan turnirda ishtirokchilar o'zlarining bilimlari, mantiqiy fikrlashi hamda jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini namoyon etdilar.



Yakuniy natijalarga ko'ra:

- **1-o'rin va "O'zkimyosanoat kubogi" sohibi** — Toshkent kimyo-texnologiya institutining "Astrofel" jamoasi;
- **2-o'rin** — Maxam-Chirchiq Ajning "Born to Win" jamoasi;
- **3-o'rin** — Yangi O'zbekiston universitetining "Yangi O'zbekiston" jamoasi.



Mazkur intellektual bellashuv yosh mutaxassislar va talabalarning bilim salohiyatini oshirish, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ular o'rtasidagi do'stona aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qildi. **G'olib va sovrindorlarni samimiy tabriklaymiz hamda ularga kelgusidagi**

faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!



Musobaqa g'oliblari va sovrindorlari forumning yakuniy taqdirlash marosimida qimmatbaho hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

